

Pedagogical technologies in the formation of creative competence in the educational process

Ulukhanov Ibrokhim Tokhtakhojaevich
Associate Professor of Technological Education, NamSU
Khusainova Gozal Abdurasulovna
Teacher of Technological Education of NamSU
Ubaydullaev Solijon Kadyrovich
Is a senior lecturer at AnSU

Annotation: The article describes the ways and stages of developing students' creative abilities in the educational process.

Keywords: problem situation, professionalism, special ability, creativity, thinking

Texnologiya darslarida o'quvchilarni tarbiyalashda pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalanish natijasida ularda quyidagi kasbiy fazilatlar va hislatlar tarkib topishi mumkin.

Jumladan: Mashg'ulotni o'tish jarayonida pedagogik texnologiyalardan muammoli vaziyat usuli qo'llanildi. O'quvchilarga mavzu yuzasidan muammoli vaziyat hosil qilindi va shu holatga oid quyidagi savollar berildi:

1. Yog'ochga mix qoqish jarayonida unda yoriq hosil bo'ldi, qanday yo'l tutamiz?

2. Berilgan javob variantlarini tahlil qilishimiz natijasida, eng to'g'ri yo'l qaysi biri deb hisoblaysiz?

Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarda bilimlarni shakllantirishga, malakalar va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

SHunday qilib, texnologiya fani o'qituvchisining keltirilgan kasbiy fazilatlarini texnologiyaning har bir fazilatlarini yil sayin o'zgargan vaziyatlarga qarab takomillashtiradi.

Bulardan ko'rinadiki, texnologiya fani maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda katta ahamiyatga ega. SHu sababli texnologiya darslarini tashkil etish va o'tkazishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda, xususan, texnologiya darslarida o'qitishning noan'anaviy usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning texnologiya fani darslarida kasbiy qiziqishlari shakllanishidagi muhim vazifa, o'quvchilarda texnik bilimlar va ishlab chiqarish mahoratini egallashga bo'lgan intilishni uyg'otish, faollik va qiziquvchanlik hosil qilishdan iboratdir. Bunga faqat ta'limning turli usul va usullarini qo'llashdan tashqari mehnat mazmunidagi o'zgarishlar, maxsus bilimlar hamda kasbiy malakalarni mohirona ko'rsatish bilan ham erishiladi.

Qobiliyat tug'ma bo'lmay, balki ba'zi organik ustunlik bilan tug'ilish natijasida vujudga keladi. Ilk bolalikdan rivojlanadigan qobiliyatlarga musiqa, rasm chizish, oddiy mehnat elementlarini bajarish kabilar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, mehnat va san'atga nisbatan qiziqish orqali qobiliyat rivojlanadi va uning boshqa qirralari namoyon bo'ladi. Fanlarni egallashga nisbatan qobiliyatning dastlabki ko'rinishlari esa ilk bolalik davridan boshlanadi.

Qobiliyat ijtimoiy shartlangan rivojlanish, shakllanish belgisiga ega xususiyatdir. Ba'zi otanonalar o'quvchilarini yoshlikdan qobiliyatli qilish uchun haddan tashqari ko'p mashg'ulot va darslar bilan shug'ullanishga majbur qilishadi. Ayniqsa, 3-4 yoshda o'quvchilarning faoliyati bilim olishga emas, balki o'yin faoliyatiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bolaning qiziqish va muammolarini hisobga olmaslik va majburiy dars qildirishlar (ayniqsa 3-4 yoshlarda) psixikaning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Har qanday layoqat qobiliyat darajasiga ko'tarilishi uchun eng murakkab yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Qobiliyatlar ilk davrlardan oq rivojlana boshlab, bir necha bosqichda amalga oshadi.

Qobiliyatlarning rivojlanishi va shakllanishi bir necha bosqichda amalga oshadi:

Birinchidan, maʼlum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sharoitga qarab tegishli tabiiy zehn, nishonalarni aniqlash yoʻli bilan;

Ikkinchidan, mutaxassis (musiqachi, artist, rassom va hokazo) rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali oʻquvchining tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yoʻli bilan;

Uchinchidan, umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali oʻzlashtirishni, tanlagan faoliyat boʻyicha koʻnikma va malakalarni hosil qilishni taʼminlovchi umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yoʻli bilan;

Toʻrtinchidan, oʻquvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni taʼminlovchi oʻquvchini har tomonlama rivojlantirish yoʻli bilan;

Beshinchidan, oʻquvchining faollik alomatlarini tarbiyalash yoʻli bilan. Bu alomatlar, dastavval, mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, puxtalik, qatʼiyatlik, sinchkovlik va tanqidiylikdan iborat. Bularsiz individning potentsial imkoniyatlari va qobiliyati faoliyatda maksimal ravishda rivojlana olmaydi

Oltinchidan, maktab oʻquvchilariga nisbatan individual munosabatda boʻlishni umumiy talablar bilan toʻgʻri qoʻshib olib borishdir.

Texnologiya fani darslarida oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish murakkab jarayon boʻlib, bunda avvalambor kreativlik mazmun mohiyatini aniqlab olishimiz talab etiladi. Kreativlik psixologlarning qarashlarida.

Amerikalik psixolog Abraxam Maslou fikriga koʻra bu tugʻilganda barchaga xos boʻlgan, ammo ijtimoiy amaliyot, taʼlim va vujudga kelgan tarbiya tizimi taʼsiri ostida koʻpchilik tomonidan yoʻqotilgan ijodiy yoʻnalishdir.

Turmushda kreativlik maqsadga erishish qobiliyati, sharoit, predmetlar va gʻayrioddiy obrazli holatlar bilan ilojisiz holatlardan chiqishni topish, yaʼni zehnlili va topqirlikdir. U tom maʼnoda muammoni oqilona hal qilishdir. Agar talab moddiy boʻlsa, zahiralari yoki maxsus boʻlmagan asboblari bilan ham amalga oshirish deganidir.

Elis Pol Torrens fikriga koʻra, kreativlik muammolar, bilimlar qarama-qarshiligi yoki tanqisligi, bu muammolarning aniqlash boʻyicha harakatlar, gipotezalarni ilgari surgan holda ularni hal qilish yoʻllarini izlash, gipotezalarni tekshirish va oʻzgartirish hamda ularni hal qilish natijalarini shakllantirish boʻyicha oʻzida yuqori sezuvchanlikni namoyon qiladi. Kreativlikni baholash uchun farqlash (divergent) tafakkur testlari, oʻquvchiiy soʻrovnomalar, faoliyat natijasi tahlillaridan foydalaniladi. Ijodiy tafakkurni oʻstirish maqsadida yangi elementlar integratsiyasi uchun oydinlik yoki uning tugallanmaganligini tavsiflaydigan oʻquv holatlaridan foydalanish mumkin. Bunda oʻquvchi koʻpgina savollarni shakllantirishga oʻrgandi.

Bilimni shakllantirish boʻyicha inson qobiliyatini ekspert va eksperimental baholash insonning kreativ qobiliyati unchalik yuqori emasligini koʻrsatadi.

Ijodiy (kreativ) tafakkurni oʻlchash uchun psixologik yoʻriqnomalar mavjud. buladan dunyo psixologik amaliyotida eng mashhuri Pol Torrens testidir. Bu test quyidagilarni baholashga imkon beradi:

- verbal kreativlik;
- obrazli kreativlik;
- alohida kreativ qobiliyat;
- tezlik-miqdoriy koʻrsatkich, testlarda bu koʻpincha bajarilgan topshiriqlar miqdori;
- uddaburonlik- gʻoyalar va strategiyalar turli tumanligini baholaydigan koʻrsatkich, bir aspektidan ikkinchi boshqa bir yoʻnalishga oʻtish qobiliyati;
- originallik (oʻziga xoslik)- bu qatʼiy oʻrnatilgan, banal, umumiy qabul qilingan, umumiy mashhurlaridan farq qiladigan gʻoyalarni surish qobiliyatini tavsiflovchi koʻrsatkich;
- muammoning mohiyatini koʻrish qobiliyati;
- stereotip (shablon)larga qarshi turish qobiliyati.

Kreativlik mezonlari

Beglost- vaqt birligida vujudga kelgan gʻoyalar miqdori.

Originallik- umumiy qabul qilinganlardan farq qiladigan g'ayrioddiy g'oyalarni ishlabchiqish qobiliyati.

Uddaburonlik Ranko ta'kidlaganidek, bu ko'rsatkich ikki holat bilan muhim: birinchidan, muammolarni hal qilish jarayonida boshqalarning shovqonligiga nisbatan uddaburonlikni namoyon qiladigan individlarni farqlashga imkon beradigan ko'rsatkich; ikkinchidan, muammolarni hal qilishda yolg'on originalini namoyon qiladiganlarga nisbatan ularni original hal qiladigan individlarni farqlashga imkon beradi.

Zehnlik, idroklilik- noaniqlik, qarama-qarshilik, g'ayrioddiy detallar bo'yicha sezuvchanlik.

Majoziylik- mutlaqo o'zgacha kontekstda ishlashga tayyorlik, oddiylikda murakkablikni, murakkablikda oddiylikko'rish mahorati, ramziy, assotsiativ tafakkurga moyillik.

Qanoatlanish(qoniqish)- kreativlik namoyon bo'lishi yakuni. Salbiy holat natijasida ma'no va kelgusida hissiyot rivojlanishi yo'qoladi.

Torrens usuli bo'yicha:

Tezlik- ko'p miqdordagi g'oyalarni namoyon qilish qobiliyati;

Uddaburonlik- muammolarni hal qilishda turli strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

Originallik- nostandart, o'zgacha g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

Ishlab chiqilganlik- paydo bo'lgan g'oyalarni sinchiklab ishlab chiqish qobiliyati;

Mavhum nomlanish- haqiqatan mavjud muammoning mohiyatini tushunish. Nomlanish jarayoni o'zida so'z shaklidagi obrazli ma'lumotni transformatsiyasi bo'yicha qobiliyatni aks ettiradi.

Kreativ nima va uni qaerlarda qo'llash kerak?

Kreativlik so'nggi o'n yillikdagi eng muhim tushunchalardan biridir. Boshqaruvchilar, marketologlar, reklamachilar, menenjerlar, rejissyorlar, prodyuserlar –bularning barchasi kreativ bo'lishni istaydi. Ular uchun kreativlik havodek zarur. Havoning formulasi bor, kreativlikni bormi? Va yana o'zida o'zgacha ko'nikmani rivojlantiradimi?

Keling sinchiklak tekshirib ko'raylik, kreativlik nima va nima uchun so'nggi o'n yillikda rossiyalik ish beruvchilar, har qanday lavozimni izlovchilar o'z rezyumesida ushbu so'zni yozmoqdalar?

Kreativlik so'zi (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – so'zidan olingan bo'lib, kashf qilish, yaratish degan ma'nolarni bildiradi. Rus tilida "tvorchestvo" ya'ni ijod so'zi bor nima uchun undan foydalanilmaydi. Javob oddiy: ijod so'zi bilan kreativ so'zi orasida sezilarli farq bor.

Kreativ bo'lish hamisha original, qandaydir yangini yaratishdir. Kreativlik – bu tafakkur qobiliyati, har qanday hayotiy jarayonga tegishli yondashuv. Mazmuniga ko'ra kreativlik – bu har kungi hayotda: ishda, munosabatlarda, o'qishda va o'z ongini boyitishdagi kreativ kompetentlik. Ijod so'zi ijodkor kishilar: musavvirlar, musiqachilar, rejissyorlar, aktyorlar yoki yozuvchilarga nisbatan qo'llash uchun qabul qilingan. Agar siz, "bizning sotuv ishlari bo'yicha bosh menenjerimiz ijodkor odam", deb aytasangiz u ishdan bo'sh vaqtlarida yo rasm chizadi, yo bo'lmasa she'rlar yozadi degan ma'noni anglatadi. Agar siz "bizning sotuv ishlari bo'yicha bosh menenjerimiz juda kreativ" desangiz bu uning o'z ishida muvaffaqiyatga erishish uchun qo'yilgan vazifalarni hal qilishga nostandart yondashuvlardan foydalanishini bildiradi.

P.Torrens fikricha, kreativlik: muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi:

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, o'quvchi faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda kreativlik o'quvchilarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat o'quvchilarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

- 2) o'quvchining mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) o'quvchilar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) o'quvchilarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar o'quvchida kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) o'quvchi fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Psixologiyada P.Torrens tomonidan o'quvchi kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, o'quvchi kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1) savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;

Muhim sifatlar:

- Refleksiya qobiliyati;
- Hissiyotga boylilik;
- Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik;
- Mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi;
- Boy tasavvur;
- O'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyish etish;
- Eruditsiya (bilag'onlik);
- Ijodiy yo'nalganlik;
- Mantiqiy fikrlay olish.

Kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlar.

2) Muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish. Bugungi kunda psixologiyada o'quvchi kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir:

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, o'quvchi harakteriga xos jihatlar – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslikda, tashabbuskorlikda, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi.

O'quvchining kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun dars jarayonida quyidagilarga e'tibori qaratish zarur:

Har bir o'quvchiningning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Turlari.

Ijodiy tafakkur va uning natijalari (tezkorlik, samaradorlik, mahsuldorlik va boshqalar)ni aniqlovchi testlar.

O'quvchi kreativ faoliyatining ikki jihatini yorituvchi test turlari

- Dars jarayoniga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or texnik va texnologik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- Auditoriyadagi boshqa o'quvchilarning yutuqlari xususida fikr almashish

O'quvchining kreativlik potentsialini rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalanish samarali sanaladi:

Odatda o'quvchilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari va dars jarayonidagi muammolarni hal qilishga intilish, qiziqarli ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

O'quvchi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik

qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun o'quvchilik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik harakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

Usullar "Zakovat" musobaqasi va b.

Individual ishlanmalar Ijodiy loyihalar

Ijodiy topshiriqlar Muammoli vaziyatlar

O'quvchining kreativlik potentsialini rivojlantiruvchi usullar

O'quvchining qiziqarli ilmiy-tajriba ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.

Natijada o'quvchining kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:

Refleksiv-baholash (bunda o'quvchining ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi).

Tezkor-faoliyatli yondashuv (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi).

Mazmunli yondashuv (o'zida psixologik, maxsus va innovatsion harakterdagi BKMni aks ettiradi).

Maqsadli-motivli yondashuv (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u o'quvchining qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi):

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali usullar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish;
- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib boorish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi:

Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potentsialini uch darajada aniqlash imkonini beradi:

O'quvchi kreativ potentsialining muhim darajalari

Daraja xususiyatlari.

1. Yuqori muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o'ta faol, izlanuvchan
2. O'rta ba'zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo'lmasa-da, ammo namoyon bo'ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo'lishga intiladi
3. Past garchi u yetarlicha asoslanmagan bo'lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo'lmaydi, izlanuvchan bo'lishga intilmaydi

O'quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish yuzasidan Devid L'byus tomonidan amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Ko'rsatma quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarning savollariga chidam bilan to'g'ri javob bering.
2. Ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qiling.
3. O'quvchilarga o'z ishlari bilan shug'ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajrating.

Ustuvor tamoyillar.

- Kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi
- O'quvchining individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda orttirgan sifatlarining o'zaro uyg'unligi
- Individuallikka erishish
- Bir butunlik, izchillik va tizimlilik
- Imkoniyatlarni oshirib boorish
- Muammoli harakterga egalik. Ijodiy yo'naltirilganlik

O'quv jarayoniga zamonaviy texnik vositalarni qo'llash tarafdorlari o'qitish sifatini yaxshilash, aynan ana shu vositalarga bog'liq deb hisoblaydilar. Tegishli uslubiy tavsiyalar ham ta'lim jarayonida texnik muhitni yaratishga, ya'ni texnologiya tushunchasini o'qitish jarayoniga qo'llash masalalariga qaratildi. Dastlabki "kompyuterli texnologiya" va "yangi axborot texnologiyalari" kabi tushunchalar vujudga keldi. Bular pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun zamonaviy texnik vosita sifatida qo'llanila boshlandi.

O'quv maqsadlarining qat'iy va ishonchli tizimini yaratishni faqat nazariyotchi olimlarni qiziqtiradigan mavhum (abstrakt) vazifa deb hisoblab bo'lmaydi. Maqsadlarning aniq, tartibli va ierarxik turkumini yaratish, eng avvalo amaliyotchi pedagoglar uchun juda muhimdir.

O'qituvchi dars jarayonida bu qayd etilganlarni amalga oshirish davomida o'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shikllantirish bilan birga ularda kasbiy sifatlarini hamda ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi.

Bulardan ko'rinadiki, texnologiya maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda katta ahamiyatga ega. SHu sababli texnologiya darslarini tashkil etish va o'tkazishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda, xususan, texnologiya darslarida o'qitishning noan'anaviy usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'qitish ishlarida yuqori samaradorlikka erishish dars turlari, tiplari, shakllari va o'quv mazmuniga mos keluvchi o'qitish usullarini, ya'ni ta'lim texnologiyalarini tanlash hamda ularni qanday qo'llashga bog'liqdir.

Integrativ texnologiyalardan (integrativ materiallardan) keng foydalanish usulikasi o'qitishda quyidagi faktorlarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- a) har bir o'qituvchi integratsiya, integrativ yondoshuv, integrativ material va uni tanlash tamoyillari, integrativ texnologiyalar haqida nazariy bilimlarini takomillashtirib, ularni amaliyotda qo'llash usullarini ishlab chiqarishlari lozim;
- b) har bir darsni imkon qadar, integratsiya tamoyillari asosida tashkil etishlari maqsadga muvofiqdir;
- v) dars jarayonida har bir o'qituvchiga, uning bilim darajasini, qobiliyatini inobatga olgan holda, integrativ yondashuvni (ayniqsa amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida) amalga oshirish zarur;
- g) har bir mavzu uchun dars loyihasini ishlab chiqarishda eng samarali integrativ texnologiya elementlarini tanlash va ularni darsda qo'llash joizdir.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Давлатов К., Воробьев А.И., Каримов И. Мехнат ва касб таълими назарияси ҳамда усуликаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 320 б.
2. Иноят У.И., Муслимов Н.А., ва бошқ. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб. – Т.: "Илм-Зиё" нашриёти, 2012 й. 12 б.т.
3. Иноят У.И., Муслимов Н.А., ва бошқ. Педагогика (нопедгогик олий таълим муассасалари учун). – Т.: ТДПУ, 2013 й. 15,25 б.т.

-
4. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва пед маҳорат. Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2003 – 176 б.
 5. Ашурова С.Ю. Профессиональная компетентность как объект оценки// Молодой ученый. – 2012. - № 4. – С. 414-417.
 6. Алимов Н.Н. Касб-хунар коллежи ўқувчиларини техник ижодкорлик фаолиятига тайёрлаш усуликаси (умумкасбий фанларни ўқитиш мисолида). Пед.фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.– Т.: 2009.–233 б.